

AMIR MUZAFFAR FAOLIYATI

Sultonova Kumushxon

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch doktaranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15714975>

Abstract. *The political activities, military campaigns, diplomatic relations, and internal governance reforms of Amir Muzaffar are covered in detail. The ruler's attention to the development of culture and science, as well as his influence on the cultural heritage preserved in written sources and architectural monuments of that period, are also studied.*

Аннотация. *Подробно освещаются политическая деятельность, военные походы, дипломатические отношения, реформы внутреннего управления Амира Музаффера.*

Изучается внимание правителя к развитию культуры и науки, а также его влияние на культурное наследие, сохранившееся в письменных источниках и архитектурных памятниках того периода.

Annotatsiya. *Amir Muzaffarning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari hamda ichki boshqaruvdagi islohotlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, hukmdorning madaniyat va ilm-fan rivojiga ko'rsatgan e'tibori, u davrda yozma manba va me'moriy obidalar orqali saqlanib qolgan madaniy merosga ta'siri ham alohida o'rganilgan.*

Buxoroga oid maqollardan birida shunday deyiladi: “Butun dunyoda nur osmondan tushadi, faqat Buxoroda u yerdan ko'tariladi”. Buxoroliklarning bu so'zni aytishiga sabab, bu muqaddas shaharning zaminida minglab solih zotlar va musulmon avliyolari dafn etilganidir. Asrlar davomida Sharafli Buxoro Markaziy Osiyodagi islomning asosiy markazlaridan biri, musulmon ilmi – ilohiyotining beshigi bo'lib kelgan. Bu muqaddas hududga hukmdorlik qilgan so'nggi sulola vakillari o'zbek Mang'itlari hisoblanadi.

Bu sulolala vakillari haqida sovetlar zamonida salbiy fikrlar bildirilgan. Mustaqallik sharofati bilan Mang'itlar sulolasi tarixini xolisona o'rganish boshlandi. Bu hukmdorlarning olib borgan islohotlari, aholining turmush tarzi va madaniy hayotini o'zganish boshlandi.

Mang'itlar sulolasi vakillaridan biri amir Muzaffar hisoblanib u amir Nasrulloning to'rtinchi o'g'li edi. Dastlab amir Nasrullo uni Qarshi shahriga hokim etib tayinlagan. Ammo amirning o'g'liga ishonmasligi sababli uni Qarshidan Karmana shahriga hokim qiladi. Amir Muzaffar 19 yil Karmanada hokim bo'lgan. Shu 19 yil davomida u otasi bilan hech qachon uchrashmagan.¹

Amir Nasrullo vafotidan keyin amir otasini marosimini o'tqazib, shundan so'ng u Samarqandga borib mashhur “kok tosh” (kulrang tosh) ustida taxtga chiqish marosimini o'tkazdi. Shu yerda u amaldorlardan va beklardan sadoqat qasamyodini qabul qildi.²

Amir Muzaffar hukmronligining chorak asrida Buxoro tarixida turli-tuman voqealar ro'y berdi. Uning shaxsiyatiga oid qarashlar zamondoshlari tomonidan juda turlicha, hatto qarama-qarshi tarzda berilgan. Masalan, tarixchi Mirzo Abdul Azim as-Somiy Muzaffarni “fazilatli ishlarni amalga oshirgan va yaxshi xulq ko'rsatgan” deb baholagan bo'lsa, Ahmad Donish uni “tug'ma nodon va tor fikrli”, “aqlsiz va qonxo'r”, “buzuq va zolim” deb atagan. Boshqa bir muallif esa amir “tinch, yakkalanishga moyil va dindor” bo'lganini yozadi.

¹ Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX в. (Позднефеодальный город и его население), М., 1966

² Дониш, Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967

1883-yilda Muzaffar bilan uchrashgan rus zobiti V. Krestovskiy o'z esdaliklarida amirning tashqi ko'rinishini shunday tasvirlaydi: "Amirning chehrasida ilgari bo'lgan go'zallikdan hali ham izlar bor edi... Uning qora mo'ylovi va qisqa soqoli, nozik qoshlari, kipriklari ostidan mo'ralab turgan katta qora ko'zlari bor edi. U odatda ko'zlarini biroz qisib turardi, faqat vaqti-vaqti bilan qarshisidagiga tik qarab, ularni to'liq ochardi. Umuman olganda, chehrasi do'stona taassurot uyg'otardi. Soqoli forscha uslubda ozgina bo'yalgan bo'lib, yorug'da qizg'ish yoki binafsha-jigarrang tusda jilvalanardi".³

Amirning Toshkentda yashagan jiyan Mir Sayyid Ahadxonning rus mualliflaridan biriga aytishicha, Muzaffar "ayollar go'zalligiga juda qiziqqan" bo'lgan. To'rt nafar rasmiy ayolidan tashqari, u 150-200 nafar ayoldan iborat keng haramga ega edi. Uning bosh xotini Shahrisabz beki Doniyor otaliqning qizi bo'lib, undan farzand ko'rmagan.

Amir Muzaffar hukmronligining dastlabki yillarida Hisor hokimi Abdukarim devonbegi, Ko'lob va Baljuvon hokimi Sarabek dodxoh, shuningdek Qorategin va Darvoz beklari amir farmoniga bo'ysunmay, isyon ko'tardilar. Qo'qon xoni Mallaxon esa O'ratepani Rustamxonbiy yuzdan tortib olib to Jizzax hududlarigacha yetib keldi. Shunda Buxoro amiri Muzaffar qattiq qish va sovuq faslida katta qo'shin bilan Hisor tomonga yurdi. U Denov viloyatiga yetib borgach, shunday qonli qatliom uyushtirdiki, bu voqea eshitganlarning barchasini dahshatga soldi, Chingizxonga xos qon to'kishlarni eslatdi. Isyon qilganlar bu dahshatli voqealarni eshitib, barmoqlarini tishlab, hayratda qoldilar.

Denovni bo'ysundirgach, Muzaffar Hisor Qadim (eski Hisor)ni 15 kun davomida qamal qilib, oxir-oqibat zabt etdi. Bu yerning hokimi Abdalkarim divonbegi va uning o'g'illari qatl etildi. Shundan so'ng Muzaffar Kulyab va Baldjuvon tomon yurdi. U yerdagi qarshilik ko'rsatganlarni og'ir kurashlardan so'ng yengdi va ularni qatl etdi. Sarabek dodxo esa Amudaryodan o'tib, Afg'oniston tomon qochdi. Darvoz va Qorategin shohlari esa bu qirollikning qudratini ko'rib, Muzaffarga bo'ysundilar va ko'plab sovg'a-salomlar bilan uning huzuriga keldilar hamda o'z viloyatlarini unga topshirib, itoat qildilar. Qorategin viloyati shohligi bevosita Sirajaddinshohga topshirildi, qolgan viloyatlarga esa muvofiq boshqaruvchilar tayinlandi.

Qo'qon xoni Ibrohimxon yomon muomalasi tufayli (Qo'qon harbiylari tomonidan) taxtdan tushirildi va uning o'rniga ukasi Xudoyorxon xon etib tayinlandi. Bu vaziyatdan foydalanib, Buxoro amiri Muzaffar O'ratepani yuz urug'idan bo'lgan Rustambiydan tortib oldi.

U yerda bir necha kun turgach, Kokandga yurish qilib, shaharni qamal ostiga oldi. Kokandni egallab, uni Xudoyorxonga topshirdi. So'ngra u Buxoroga qaytib keldi. Oradan ikki yil o'tib, qo'qonliklar yana Murodxon ismli kishini xon deb e'lon qildilar. Xudoyorxon esa qochib, Samarqandga keldi. U yerda Ollayorbek nomli narpaylik kishi hokimlik qilayotgan edi. U Sayyid Muzaffarning buyrug'i bilan, Xudoyorxonga mablag' tayinlab, uni Samarqandda saqlab turdi.⁴

Yana ikki yil o'tgach, Muzaffar Buxoroni tark etib, yana Samarqandga keldi. U yerda harbiy harakatlarni boshladi va Xudoyorxonni o'zi bilan olib, yana Qo'qonga yurdi. Shaharni bosib olib, ikkinchi bor Xudoyorxonni xon etib tayinladi va o'zi Buxoroga qaytdi. Bu orada qipchoq urug'idan bo'lgan sarkardalar Ashurbiydan Shahrisabzni tortib olib, uni o'zlari uchun hokim qilib tayinladilar va A'jamayli urug'idan bo'lgan Hakimbekni Shahrisabz hokimi deb

³ Сами Мирза Абдал'азим, Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангитских государей). Изд. текста, пред., пер. и прим. Л.М.Епифановой, М., 1962

⁴ Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX в. (Позднефеодальный город и его население), М., 1966

e'lon qildilar. Zokirbiydanda esa Kitob viloyati tortib olinib, o'rniga Jo'rabek ismli shaxs hokim etib tayinlandi. Ular Shahrisabz va Kitob shaharlarining devorlari va minoralarini mustahkamlab, amir Muzaffarga qarshi isyon ko'tardilar. Bu xabarni eshitgan amir Muzaffar ularga qarshi yurish qildi. U Shahrisabzni ikki oy qamalda tutdi, biroq uni bo'ysundira olmadi. Natijada sulh tuzib, Buxoroga qaytdi.

1883-yilda amir Muzaffar Rossiya imperatori Aleksandr III ga "Buxoro Yulduzi" ordenini bergani uchun, unga javoban imperator tomonidan brilantlar bilan bezatilgan I darajali Avliyo Anna ordeni bilan taqdirlangan. Ushbu mukofotni topshirish uchun Buxoroga general-mayor knyaz Vitgenshteyn boshchiligidagi maxsus elchilik yuborilgan.⁵

1885-yil avgust oyida amir o'z hududlarini yillik aylanib chiqish safarida Qarshida "epidemik yomon sifatli isitma" (o'sha vaqtdagi atama) bilan kasallandi. Safarni to'xtatib, Buxoroga qaytib keldi va Shirbudun bog' saroyida deyarli ikki oy yashadi. Kasallik deyarli o'tgan edi, biroq 28-sentabr kuni u yana kuch bilan qaytdi.

Amirning eng yaqin amaldorlari — Ostanqulbiy va Muhammadbiy qushbegi uni Buxoro qal'asi — Arkka ko'chirishga qaror qilishdi. Aynan shu yerda, 1885-yil 31-oktabr tonggi soat beshga yaqin, Muzaffar vafot etdi. U Buxorodan uncha uzoq bo'lmagan Imom Imlo qabristonidagi Mang'itlar sulolasi maqbarasiga dafn etilgan. Ushbu maqbara bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Muzaffar o'z davrining siyosiy, harbiy va madaniy hayotida muhim iz qoldirgan tarixiy shaxslardan biridir. Uning hukmronligi davrida davlat boshqaruvi tizimi mustahkamlangan, ichki tartib-intizom va moliyaviy barqarorlikka erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сами Мирза Абдал'азим, Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангитских государей). Изд. текста, пред., пер. и прим. Л.М.Епифановой, М., 1962
2. Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX в. (Позднефеодальный город и его население), М., 1966
3. Логофет, В забытой стране. Путевые очерки по Средней Азии, М., 1912
4. Дониш, Ахмед, История мангитской династии, Душанбе, 1967

⁵ Сухарева О.А. Бухара XIX- нач. XX в. (Позднефеодальный город и его население), М., 1966